

**OZODLIKDAN MAHRUM QILISH BILAN BOG‘LIQ BO‘LMAGAN JAZO
TAYINLANGAN SHAXSLARGA NISBATAN SUD HUKMLARINI
RASMIYLASHTIRISH VA IJROGA QARATISH TARTIBI**

Umaralieva Dilshodaxon Nabijonovna

IIV Akademiyasi Huquqbuzarliklar profilaktikasi kafedrasida katta o‘qituvchisi

Tel raqami: +998 91 680 0507

Normuhammadov Diyorbek Akbarjon o‘g‘li

O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi kursanti

Tel raqami: +99877 188 7740

Annotatsiya: Mazkur maqolada ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan jazo turlariga hukm qilingan shaxslarga nisbatan sud hukmlarini rasmiylashtirish hamda ularni ijroga qaratishning tashkiliy-huquqiy asoslari tahlil qilingan. Shuningdek, probatsiya xizmatining faoliyati, sud hujjatlarini ijroga yuborish mexanizmi, amaliyotda uchrayotgan muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari ilmiy jihatdan yoritilgan. Milliy qonunchilik hamda xalqaro standartlar asosida tegishli taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: sud hukmi, jazo ijrosi, probatsiya, ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan jazo, sud hujjati, jinoyat-ijroiya tizimi, probatsiya nazorati, jamoat ishlari, axloq tuzatish ishlari.

**ПРОЦЕДУРА ФОРМАЛИЗАЦИИ И ИСПОЛНЕНИЯ СУДЕБНЫХ РЕШЕНИЙ
В ОТНОШЕНИИ ЛИЦ, ПРИГОВОРЕННЫХ К НАКАЗАНИЯМ, НЕ
СВЯЗАННЫМ С ЛИШЕНИЕМ СВОБОДЫ**

Умаралиева Дильшодахон Набиджонова

Старший преподаватель кафедры профилактики преступности

Академии внутренних дел

Tel raqami: +998 91 680 0507

Нормухамедов Диёрбек Акбарджон ўғли

Кадет Академии внутренних дел Республики Узбекистан

Номер телефона: +99877 188 7740

Аннотация: В данной статье анализируются организационно-правовые основы формализации судебных решений и их исполнения в отношении лиц, приговоренных к видам наказаний, не связанным с лишением свободы. Также научно освещены деятельность службы пробации, механизм направления судебных документов в исполнение, проблемы, возникающие на практике, и пути их устранения. На основе национального законодательства и международных стандартов разработаны соответствующие предложения и рекомендации.

Ключевые слова: судебное решение, исполнение наказания, пробация, наказание, не связанное с лишением свободы, судебный документ, уголовно-исполнительная система, пробационный контроль, общественные работы, исправительная работа.

**PROCEDURE FOR FORMALIZATION AND ENFORCEMENT OF COURT
JUDGMENTS FOR PERSONS SENTENCED TO PUNISHMENTS NOT
RELATING TO DEPRIVATION OF LIBERTY**

Umaralieva Dilshodakhon Nabijonovna

Senior Lecturer, Department of Crime Prevention, Academy of
the Ministry of Internal Affairs
Tel raqami: +998 91 680 0507

Normuhammadov Diyorbek Akbarjon o'g'li

Cadette, Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan
Phone number: +99877 188 7740

Annotation: This article analyzes the organizational and legal basis for formalizing court judgments and directing them to execution for persons sentenced to types of punishment not involving deprivation of liberty. Also, the activities of the probation service, the mechanism for sending court documents for execution, problems encountered in practice and ways to eliminate them are scientifically covered. Relevant proposals and recommendations have been developed based on national legislation and international standards.

Keywords: court judgment, execution of punishment, probation, punishment not involving deprivation of liberty, judicial document, criminal-executive system, probation control, community service, correctional work.

Bugungi kunda mamlakatimizda sud-huquq tizimini demokratlashtirish, jinoyat qonunchiligini liberallashtirish hamda inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazolarni

qo‘llash amaliyotini kengaytirish, ularni jamiyatdan ajratmagan holda qayta tarbiyalash hamda ijtimoiy moslashtirish masalalariga alohida e‘tibor qaratilmoqda [1].

O‘zbekiston Respublikasining yangilangan Konstitutsiyasida inson qadri, uning huquq va erkinliklari oliy qadriyat sifatida e‘tirof etilgan bo‘lib, ushbu prinsip jinoyat va jinoyat-ijroiya qonunchiligini takomillashtirishda ham muhim ahamiyat kasb etmoqda [1]. Shu nuqtai nazardan ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan jazolarni qo‘llash, sud hukmlarini qonuniy va asosli rasmiylashtirish hamda ularni samarali ijroga qaratish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi hamda Jinoyat-ijroiya kodeksida ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan jazolarning turlari, ularni tayinlash va ijro etish tartibi huquqiy jihatdan mustahkamlab qo‘yilgan [2; 3]. Mazkur jazolarni ijro etish jarayonida sud organlari, probatsiya xizmatlari hamda boshqa vakolatli tashkilotlarning o‘zaro hamkorligi muhim o‘rin tutadi.

So‘nggi yillarda probatsiya tizimini takomillashtirish bo‘yicha qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jinoyat-ijroiya qonunchiligini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori hamda “Probatsiya to‘g‘risida”gi qonun ushbu tizimning huquqiy asoslarini yanada mustahkamlashga xizmat qildi [11; 22].

Xalqaro huquqiy hujjatlarda ham ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan jazolarni qo‘llash masalasiga alohida e‘tibor qaratilgan. Xususan, BMTning Tokio qoidalarida bunday jazolarni qo‘llash orqali shaxsni jamiyatdan ajratmagan holda uning xulq-atvorini tuzatish va qayta ijtimoiylashtirish zarurligi ta‘kidlangan [5].

Mazkur maqolada ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan jazo tayinlangan shaxslarga nisbatan sud hukmlarini rasmiylashtirish hamda ijroga qaratish tartibining huquqiy asoslari, amaliy muammolari va ularni takomillashtirish yo‘nalishlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.

Ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan jazolarning huquqiy tavsifi

Ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan jazolar jinoyat sodir etgan shaxsni jamiyatdan ajratmagan holda uning xulq-atvorini tuzatish, qayta ijtimoiylashtirish hamda takroriy jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan jazo choralaridan hisoblanadi. Mazkur jazolar insonparvarlik, ijtimoiy adolat va differensial yondashuv tamoyillariga asoslanadi [2].

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan jazolar tizimi belgilangan bo‘lib, ularga jarima, muayyan huquqdan mahrum qilish, majburiy jamoat ishlari, axloq tuzatish ishlari, xizmat bo‘yicha cheklash, ozodlikni cheklash va boshqa jazo turlari kiradi [2]. Ushbu jazolarni qo‘llashda sodir etilgan jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasi, aybdorning shaxsi, uning oilaviy va ijtimoiy holati hamda jazodan ko‘zlangan maqsadlar hisobga olinadi.

Jinoyat-ijroiya kodeksida esa mazkur jazolarni ijro etish tartibi, nazorat qilish mexanizmlari hamda vakolatli organlarning vazifalari aniq belgilab qo‘yilgan [3]. Ayniqsa, probatsiya xizmatining vakolatlari va faoliyat yo‘nalishlari keyingi yillarda sezilarli darajada kengaytirildi.

Shuningdek, BMTning Tokio qoidalarida ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan jazolarni qo‘llash davlatlar tomonidan jinoyatchilikka qarshi kurashishning muhim vositasi sifatida e‘tirof etilgan [5]. Ushbu xalqaro standartlarda shaxsni jamiyatdan ajratmagan holda nazorat qilish, unga ijtimoiy va psixologik yordam ko‘rsatish ustuvor vazifa sifatida ko‘rsatib o‘tilgan.

Sud hukmlarini rasmiylashtirishning protsessual asoslari

Sud hukmini rasmiylashtirish jinoyat protsessining muhim yakunlovchi bosqichi hisoblanadi. Sud tomonidan chiqarilgan hukm qonuniy, asoslantirilgan va adolatli bo'lishi lozim. Hukmning mazmuni va shakliga qo'yiladigan talablar Jinoyat-protsessual kodeksida belgilangan [4].

Sud hukmida quyidagi holatlar to'liq va aniq aks ettirilishi talab etiladi:

1. sudlanuvchining shaxsiga oid ma'lumotlar;
2. sodir etilgan jinoyat tavsifi;
3. jinoyatning kvalifikatsiyasi;
4. tayinlangan jazo turi;
5. jazoni ijro etish muddati;
6. jazoni ijro etuvchi organ nomi;
7. mahkum zimmasiga yuklatilgan majburiyatlar.

Ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazolar bo'yicha chiqarilgan hukmlarda probatsiya organlari uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarning aniq ko'rsatilishi muhim ahamiyatga ega. Chunki hukmda ayrim ma'lumotlarning to'liq aks ettirilmasligi ijro jarayonida muammolarni keltirib chiqaradi.

Sud hukmi qonuniy kuchga kirgandan so'ng tegishli tartibda ijroga yuboriladi. Bu jarayonda sud kotibiyati, ichki ishlar organlari hamda probatsiya xizmatlari o'rtasidagi hamkorlik alohida ahamiyat kasb etadi [3].

Sud hukmlarini ijroga qaratish tartibi

Sud hukmlarini ijroga qaratish sud qarorlarini amalda bajarishga yo'naltirilgan tashkiliy-huquqiy faoliyat hisoblanadi. Jinoyat-ijroiya qonunchiligiga ko'ra hukm qonuniy kuchga kirgach, belgilangan muddatlarda ijro etuvchi organlarga yuborilishi lozim [3].

Ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan jazolarni ijro etishda probatsiya xizmatlari asosiy vakolatli organ sifatida faoliyat yuritadi. Probatsiya organlari sud hukmini qabul qilgach, mahkumni hisobga oladi va unga nisbatan nazorat ishlari olib boradi [13].

Sud hukmini ijroga qaratish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. Sud hukmining ijro etuvchi organlarga yuborilishi;
2. Mahkumni probatsiya hisobiga qo‘yish;
3. Shaxsiy yig‘ma jildni shakllantirish;
4. Mahkum bilan profilaktik suhbat o‘tkazish;
5. Nazorat rejasini ishlab chiqish;
6. Jazoni ijro etish monitoringini olib borish.

Probatsiya nazoratidagi shaxslarning xulq-atvorini nazorat qilish tartibi Ichki ishlar vazirining tegishli buyruqlari asosida amalga oshiriladi.

Majburiy jamoat ishlari jazosi tayinlangan shaxslarni ish bilan ta‘minlash va ularning mehnatini tashkil etish Vazirlar Mahkamasining tegishli qarori asosida amalga oshiriladi [18].

Probatsiya xizmatining o‘rni va vazifalari

Bugungi kunda probatsiya xizmati jinoyat-ijroiya tizimining muhim tarkibiy qismiga aylangan. Probatsiya faoliyatining asosiy maqsadi mahkumlarni nazorat qilish bilan bir qatorda ularning ijtimoiy moslashuviga ko‘maklashishdan iboratdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining jinoyat-ijroiya tizimini takomillashtirishga qaratilgan qarorlari probatsiya xizmatining institutsional asoslarini mustahkamlashga xizmat qilmoqda .

Probatsiya xizmatining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. mahkumlarning xulq-atvorini nazorat qilish;
2. takroriy jinoyatchilikning oldini olish;
3. mahkumlarni ijtimoiy moslashtirish;
4. profilaktik tadbirlarni amalga oshirish;
5. sud tomonidan yuklatilgan majburiyatlar ijrosini ta'minlash.

Shuningdek, probatsiya nazoratidagi shaxslarning bandligini ta'minlash, ularni kasb-hunarga yo'naltirish ham muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Shu sababli mahalliy hokimliklar, bandlik organlari va fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlik muhim ahamiyat kasb etadi.

Amaliyotda uchrayotgan muammolar

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, sud hukmlarini ijroga qaratish amaliyotida ayrim muammolar mavjud.

Birinchi, ayrim hollarda sud hujjatlari probatsiya organlariga kech yuborilishi natijasida jazoni ijro etish muddatlari cho'zilib ketmoqda.

Ikkinchi, elektron ma'lumot almashinuvi tizimining yetarli darajada rivojlanmaganligi hujjatlar aylanishida byurokratik to'siqlarni yuzaga keltirmoqda.

Uchinchi, probatsiya xodimlari yuklamasining ortib borishi nazorat samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

To'rtinchi, ayrim mahkumlarning yashash manzilini o'zgartirishi yoki nazoratdan yashirinishi jazoni ijro etishda qo'shimcha qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda.

Bundan tashqari, majburiy jamoat ishlari bilan bog'liq jazolarni ijro etishda tashkilotlar bilan hamkorlikning sustligi ham amaliy muammolardan biri hisoblanadi [16].

Xorijiy tajriba va xalqaro standartlar

Rivojlangan davlatlar tajribasida ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan jazolarni qo‘llash keng tarqalgan. Xususan, AQSH, Buyuk Britaniya va Germaniya kabi davlatlarda probatsiya instituti jinoyatchilikning oldini olishning samarali vositalaridan biri sifatida qaraladi.

BMTning Tokio qoidalarida ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan jazolarni qo‘llash orqali shaxsni jamiyatdan ajratmagan holda uni nazorat qilish va qayta tarbiyalash zarurligi qayd etilgan [7]. Nelson Mandela qoidalarida esa mahkumlarning huquqlari va insoniy qadr-qimmatini ta‘minlash tamoyillari belgilangan [8].

Mazkur xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish jinoyat-ijroiya tizimini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan jazolarni qo‘llash jinoyat-ijroiya tizimini insonparvarlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Sud hukmlarini qonuniy va to‘g‘ri rasmiylashtirish hamda ularni o‘z vaqtida ijroga qaratish jazolarning samarali ijrosini ta‘minlaydi [3].

Tadqiqot davomida sud hukmlarini ijroga qaratish tartibi, probatsiya xizmatining vazifalari hamda amaliyotda uchrayotgan ayrim muammolar tahlil qilindi. Tahlillar asosida sud va probatsiya organlari faoliyatini raqamlashtirish, elektron monitoring tizimini rivojlantirish hamda nazorat mexanizmlarini takomillashtirish zarurligi aniqlandi.

Shuningdek, xalqaro standartlar va milliy qonunchilik talablarini uyg‘unlashtirish sud hukmlarini ijro etish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi [7].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining yangilangan Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. – URL: <https://www.lex.uz/acts/111453>
3. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksi. – URL: <https://lex.uz/acts/163629>
4. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi. – URL: <https://www.lex.uz/acts/111460>
5. BMT ning ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan jazolarni qo‘llash bo‘yicha minimal standart qoidalari (Tokio qoidalari).
6. Birlashgan Millatlar Tashkilotining mahbuslar bilan muomala qilish bo‘yicha minimal standart qoidalari (Nelson Mandela qoidalari).
7. O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya kodeksiga mahkumlarning huquqlari va qonuniy manfaatlari ishonchli himoya qilinishini ta’minlashga qaratilgan o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi 2020-yil 30-iyundagi O‘RQ-625-son qonuni.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jinoyat-ijroiya qonunchiligini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2018-yil 7-noyabrdagi PQ-4006-son qarori.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2021-yil 29-noyabrdagi PF-27-son farmoni.
10. O‘zbekiston Respublikasining “Probatsiya to‘g‘risida”gi 2024-yil 7-avgustdagi O‘RQ-938-son qonuni.

- 11.** O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Majburiy jamoat ishlari tariqasidagi jazoning ijrosini tashkil etish tartibi haqidagi nizomni hamda majburiy jamoat ishlari turlarining ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2018-yil 8-maydagi 346-son qarori.
- 12.** O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ichki ishlar organlari Probatsiya xizmati faoliyatini samarali tashkil etish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2020-yil 14-fevraldagi 84-son qarori.
- 13.** O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining “Probatsiya nazoratidagi shaxslarning xulq-atvori ustidan nazoratni amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnomani tasdiqlash haqida”gi 2025-yil 19-iyuldagi buyrug‘i.
- 14.** Abdulxamidov A.A. Jinoyat sodir etgan shaxsga ozodlikdan mahrum etish jazosi tayinlamay, jazolash tizimi // O‘zR IIV Akademiyasi axborotnomasi. – T., 2021. – №4.
- 15.** Ismailov I., Abdurasulova Q.R., Shodiyev A.A., Jabbarov Z.Q., Usmonov D.M. va boshq. Jinoyat-ijroiya huquqi: Darslik. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2021.
- 16.** Odilqoriyev X.X. O‘zbekiston Respublikasining qonunchilik tizimi. – T.: TDYU, 2008.